Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi

Iso O'n Ikki Yordamchi Tanladi

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:
Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
E. Frischbutter; Sarah S.

Alastair Paterson

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2020 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.

Iso ajoyib ishlar qilgan. U kasallarni shifolagan, qiynalganlarning yuragi va ongiga tinchlik bergan, hamda Xudo Kalomini o'rgatgan.

Olamon Iso oldiga yordam va shifo so'rab kelardi.



Iso Xudoning ishini qilishda Unga yordam berishi uchun ko'plab ergashuvchilari orasidan o'n ikki kishini tanlashga qaror qildi.

Muhim qaror qilish kerak bo'lganda siz Xudoga ibodat qilasizmi? Iso shunday qildi! Sokin tog'li o'lkada U Samoviy Otaga duo qildi. Iso kechga qadar ibodat qildi.

Iso butun uzoq
va qorong'u tun
ibodat qilib
chiqdi.

Tongda Iso Unga ergashuvchilarni, ya'ni,
Unga xizmat qilib, bo'ysinuvchilarni chaqirdi.
Ularning orasidan Iso o'n ikki maxsus
yordamchilarni, ya'ni,
havoriylarni
tanlab oldi.

Iso birinchi tangalan ikki shogird Simun Butrus va Idris aka-uka edilar. Iso birinchi marta ularni chaqirganda ular baliqchilik kasbini tashlab Unga ergashgan edilar.



Zabadiy o'g'illari Yoqub va Yuhanno ham baliqchilik to'rlarini tashlagan edilar.

Iso yana Filip, Bartolmey, Matto, To'ma, vatanparvar Simun, Alfey o'g'li Yoqub, Yoqub o'g'li Yahudo, hamda keyinchalik Isoga dushman bo'lgan Yahudo Ishqariyotni tanladi.

Isoning ta'lim berishicha,
Uning aytganlarini bajarish
mustahkam poydevorda
uy qurishga o'xshaydi.
Bunday uyni kuchli
to'fonlar vayron
qilolmaydi.

Ammo, Isoning So'zlariga bo'ysunmaslik uyni qumli poydevorda qurish kabidir. To'fon kelganida bunday uy vayron bo'ladi.



Isoning ba'zi amrlarini bajarish oson emas. “Bir chakkangga urganga ikkinchisini ham tut” deb ta'lib bergan Iso. Yana U “Dunmanlaringizni sevinglar” degan. Iso kabi yashash uchun insonlar Xudoning yordamiga muxtoj.

Iso yana yashirin joyda ibodat qilishni aytgan, ya'ni ba'zi dindorlarga o'xshab maqtanish uchun odamlar oldiga ibodat qilmaslikni uqtirgan.

Iso aytganki, Xudoga
ishongan odamlarni
Xudo kiyim va ovqat bilan
taminlaydi. Xudo qushlarga
yemish beradi, gul va
o'simliklarni chiroyli ranglar
burkaydi.

Shu kabi, Xudo
unga ishonganlarning
barcha muxtojliklarini
ta'minlaydi.

Iso o'sha kuni
O'zining yangi tanlagan
yordamchilariga ko'p
narsalarni o'rgatdi.
Shundan so'ng, maxovga
chalingan bir kishi Iso
oldiga kelib, Undan
shifo so'radi.


Iso unga shunday javob berdi, “Senga shifo beraman. Pok bo'lgin.” Isoning yordamchilari ko'z oldida maxov kishi shifo topdi. U tuzalib ketdi! Bunday ish faqat Xudoning O'g'li qo'lidan keladi. Yordamchilar ularning Ustozi
ajoyibligini bilishardi.

Iso O'n Ikki Yordamchi Tanladi

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

…dan topilgan

Matto 4-7 boblar, Mark 1-bob,
Luqo 6-bob

“Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar.”
Zabur 119:130

Hikoya tugadi

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Xudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16